



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

XORIJIY TILLARNI O'RGATISHNING INTENSIV VA OMMALASHGAN YO'LLARI

Saitova Ozoda Ilox qizi

Toshkent davlat jahon tillari universiteti, 2429-guruh talabasi

saitovaozoda44@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178918>

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif xorijiy tillarni o'rgatishning intensiv va ommalashgan usullari haqida ma'lumot beradi. Hozirgi kunda chet tillariga talab oshib borayotganligi sababli, tezkor va samarali o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda xorijiy tillarni zamonaviy texnologiyalar, kommunikativ yondashuvlar, onlayn ta'lim platformalar orqali o'rganish va o'rgatish usullari tahlil qilinadi. Muallif maqolada intensiv o'qitish texnologiyalari va metodlarini tahlil qilgan holda, ularning til o'rganish jarayonidagi ta'sirini o'rganib, ushbu metodlar va uslublarning ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: intensiv usullar, mobil ilovalar, onlayn platformalar, kommunikativ yondashuv, xorijiy tillar.

Abstract. In this article, the author provides information about intensive and popular methods of teaching foreign languages. As the demand for learning foreign languages is increasing, rapid and effective learning has become crucial. The study analyzes modern technologies, communicative approaches, and online platforms used for learning and teaching foreign languages. By examining intensive teaching technologies and methods, the author explores their impact on the language learning process and highlights the significance of these approaches.

Keywords: intensive methods, mobile applications, online platforms, communicative approach, foreign languages.

Аннотация. В данной статье автор предоставляет информацию об интенсивных и популярных методах преподавания иностранных языков. В современном мире спрос на изучение иностранных языков постоянно растёт, поэтому быстрое и эффективное обучение приобретает особую важность. В исследовании анализируются методы изучения и преподавания иностранных языков с использованием современных технологий, коммуникативных подходов и онлайн-платформ. Автор, рассматривая технологии и методы интенсивного обучения, изучает их влияние на процесс изучения языка и подчёркивает значимость этих методов и подходов.

Ключевые слова: интенсивные методы, мобильные приложения, онлайн-платформы, коммуникативный подход, иностранные языки.

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganish va bilishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Har bir soha vakili yetuk mutaxassis bo'lishi uchun o'z ona tilidan tashqari, dunyo tillaridan kamida ikki va undan ortiq turini bilishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilda qabul qilingan "Chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda chet tillarini o'qitish sifatini



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

oshirish va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga qaratilgan muhim hujjatdir. Ushbu qaror chet tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy metodlarni joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ta'lim muassasalarini zarur resurslar bilan ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xorijiy tillarni bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish balki kasbiy muvaffaqiyat va xalqaro muloqot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo bo'ylab chet tillariga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, tez va samarali o'rgatish usullari ustida izlanishlar ortmoqda. An'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda, zamonaviy intensiv metodlar keng qo'llanilmoqda. "Metodika" so'zi aynan yunon tilidan olingan bo'lib, "meta"- izlanish, maqsad ma'nolarini bildirsa, "xodos" esa yo'l degan ma'noni bildiradi. Umuman olganda, metodika fani haqiqatni anglash, unga yetishishning yo'llarini o'rganuvchi fandır. Xorijiy tillarni o'rganishning ham bir necha olimlar tomonidan taklif qilingan turli xil metodlari bor. Ulardan biri M. Berlis metodi. Amerika Qo'shma Shtatlarida 1878-yilda chet tili o'qitish kurslarini tashkil etgan va darsliklar tuzgan chet tili o'qitish metodikasi tarixida atoqli metodist olim. M. Berlis sistemasining asosiy metodik mulohazalarini uning darsliklari muqaddimasidan o'qib olish mumkin. Til materialini idrok etish immanent (biror narsaning ichki mohiyatiga oid, unga ajralmas tarzda bog'liq bo'lgan xususiyat) tarzda, tarjimasiz bo'lishi kerakligini, so'z bilan narsa (hodisa, harakat) fikran bevosita bog'lanishi, ona tili so'zlari bilan aloqa o'rnatilmasligi hamda grammatik tushunchalarni kontekstda, ong ishtirokisiz (induktiv holda) ona tili bilan qiyoslamasdan idrok etish, muallimga taqlid qilish orqali til materialini mustahkamlash kerakligini, chet tili o'rganishda ona tili ishtirok etmasligi zarur kabi mulohazalarni, metodlarni ilgari suradi. O'quvchilarni nutq faoliyatiga undovchi muallim va o'quvchi suhbat boshqalaridan maqbul ish uslubi ekanligini tadqiqodlarida o'z isboti bilan ta'kidlaydi.

F. Guen metodiga ko'ra til o'rganishda og'zaki nutq birlamchi ekanligini ta'kidlab o'tadi. U metodikada birinchi bo'lib leksikaning mavzular (uydagi hayot, maktab, jamiyat, tabiat) bo'yicha tasnifini kashf etgan, bundan tashqari grammatikaning leksikaga tobeligi kabi fikrlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Mashhur olim Piter Xegboldt esa o'qitish uslublariga quyidagilarini kiritgan: 1) nutq faoliyati turlarining o'zaro aloqasi va ko'nikmalarining nutq faoliyati turidan



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

boshqasiga ko'chishi; 2) tilni aktiv va passiv egallashni farqlash; 3) assotsiativ aloqalarni va analogiyani qo'llash; 4) o'rgatish vositasi sifatida tarjimadan foydalanish usul va ko'nikmalar ustida ilmiy izlanishlar olib borib, hozirgi kunda o'z samarasini bermoqda.

XXI asrda xorijiy tillarni o'qitish metodlari ancha rivojlangan bo'lib, **mobil ilovalar**- har bir o'rganuvchi uchun masofadan turgan holda istagan tilda gapirish va yozish ko'nikmasini qisqa vaqt ichida o'rganish imkoniyatini beradi. Bunga misol qilgan holda, "Ibrat academy", "Duolingo" "Memrise" ilovalarini keltiramiz.

Onlayn platformalar- mustaqil tarzda va istalgan joyda ta'lim olish imkoniyatlarini beradi. Bu platformalar interaktiv mashqlar, mavzuga doir testlar, videodarslar, audio materiallari va jonli suhbat orqali o'rganish jarayonini osonlashtirib qolmay, balki qiziqarli tarzda amalga oshiradi. www.kahoot.it, www.lingq.com, www.coursera.com saytlari orqali o'rganish va o'rgatish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, bugungi kunda til o'rganish jarayonida raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarning roli ortib bormoqda. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar va yuqoridagi metodlar til o'rganishda samarali vosita bo'lib, o'quvchilarga qulay va interaktiv tarzda intensiv yo'llar bilan tillarni tez o'zlashtirishga asosiy ko'makchi bo'ladi. Ushbu platformalarni mahalliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish, ularni maktab va universitet dasturlariga kiritish, shuningdek, sun'iy intellekt imkoniyatlarini kengaytirish til o'rganish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov. J Chet tili o'qitish metodikasi//Toshkent-2012.
2. Muminova.F.M Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
3. <https://www.thelearningapps.com/uz/tilni-o%27rganish-uchun-ilovalar/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, 2021
5. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.